TURK XALQ MAQOLLARIDA HAYVONLAR OBRAZI

Shodiyeva Ozoda Sobirjon qizi
O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti
Sharq filologiyasi fakulteti
Turk tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
ozodashodiyeva829@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20269211

Annotatsiya. Ushbu maqolada turk xalq maqollarida hayvonlar obrazining qo‘llanilishi va ularning ma’no-mohiyati tahlil qilingan. Maqollar xalq og‘zaki ijodining muhim qismi sifatida xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini qisqa va obrazli tarzda ifodalashi ta’kidlanadi. Tadqiqotda Ziya Gökalpning maqollar haqidagi qarashlariga tayanilib, ularning milliy ruh va madaniyatni aks ettiruvchi manba ekanligi yoritilgan.

Shuningdek, maqollarda uchraydigan hayvon obrazlari — zoonimlarning ramziy ma’nolari ochib berilgan. Arslon, ot, it kabi ijobiy timsollar hamda tulki, eshak, ilon kabi salbiy obrazlar orqali inson xulqi va xarakter xususiyatlari ifodalangani misollar bilan ko‘rsatilgan. Har bir obrazning ma’nosi va ularning xalq tafakkuridagi o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Turk xalq maqollari, og‘zaki ijod, zoonimlar, hayvon obrazlari, metafora, xalq donishmandligi, Ziya Gökalp, madaniy meros, axloqiy qadriyatlar, ijobiy va salbiy timsollar, ramziy ma’no.

Abstract. This article analyzes the use of animal imagery in Turkish folk proverbs and their semantic meaning. Proverbs are highlighted as an important part of oral folk creativity, expressing the life experience, worldview, and moral values of the people in a concise and figurative way. The study is based on Ziya Gökalp’s views on proverbs, emphasizing that they are a source reflecting national spirit and culture.

It is also revealed that the symbolic meanings of zoonyms—animal images found in proverbs—are interpreted. Through positive symbols such as lion, horse, and dog, as well as negative images such as fox, donkey, and snake, human behavior and character traits are illustrated with examples. The meaning of each image and its role in folk thinking are analyzed**.**

Keywords: Turkish folk proverbs, oral literature, zoonyms, animal imagery, metaphor, folk wisdom, Ziya Gökalp, cultural heritage, moral values, positive and negative symbols, symbolic meaning.

Аннотация. В данной статье анализируется использование образов животных в турецких народных пословицах и их смысловое значение. Пословицы рассматриваются как важная часть устного народного творчества, отражающая жизненный опыт, мировоззрение и нравственные ценности народа в краткой и образной форме. Исследование основано на взглядах Зии Гёкальпа на пословицы, подчёркивая, что они являются источником, отражающим национальный дух и культуру.

Также раскрываются символические значения зоонимов — образов животных, встречающихся в пословицах. На примерах показано, как через положительные образы (лев, лошадь, собака) и отрицательные (лиса, осёл, змея) выражаются человеческие качества и особенности характера. Проанализированы значение каждого образа и его роль в народном мышлении.

Ключевые слова: турецкие народные пословицы, устное творчество, зоонимы, образы животных, метафора, народная мудрость, Зия Гёкальп, культурное наследие,

нравственные ценности, положительные и отрицательные образы, символическое значение.

Maqol arabcha „qavlun” so’zidan olingan bo‘lib, hikmatli so‘z degan ma’noni anglatadi.[1] Maqollar har bir xalqning asrlar davomida toplagan hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va tafakkurini o‘zida mujassam etgan xalq og’zaki ijodidir. Ular qisqa va lo‘nda bo‘lsa-da, chuqur ma’no mazmunni ifodalaydi.

Turk xalq og’zaki ijodida maqollar muhim o‘rin egallaydi. Turk sotsiologi va mutafakkir Ziya Gökalp maqollarni “Xalqning asrlar davomida egallagan kechinmalari, axloqiy tushunchalari va dunyoqarashining “kristallashgan” holati” deb aytib o‘tadi. Unga ko‘ra maqollar xalqning ruhini aks ettiruvchi eng sof manbadir. Turk xalq maqollarida millatning o‘y-fikirlari, qadriyatlari, tushunchalari, kechinmalari asosiy mavzu qilib olinadi. Shu bois maqollar nafaqat til boyligi, balki milly madaniyat va ruhiyatning ham yorqin namunasidir.

Hayvonlar turk xalq maqollarida ajralmas unsur hisoblanadi. Ular asosan metaforik xususiyatga ega bo‘lib, o‘zlariga xos xususiyatlari bilan jonli holda tasvirlanadi. Hayvonlar odatda berilmoqchi bo‘lgan fikrning, o‘gitning ramziy qahramonlari hisoblanadi. Tarihga nazar tashlaydigan bo‘lsak madaniy tarihimizda ba’zi hayvonlar alohida ajralib turgnini ko‘ramiz. Bulardan asosan ot, sigir, burgut, arslon, it, tulki kabi hayvonlar alohida e’tiborga olingan. Maqollarda uchraydigan hayvon obrazlari ilmiy jihatdan zoonimlar deb ataladi.[2] Ular hayvonning tabiiy belgilariga asoslanib, insonning xulq-atvori va xarakterini ifodalshda qo‘llaniladi. Masalan arslon jasurlikni, tulki ayyorlikni, bo‘ri yovuzlikni anglatadi. Turk xalq og’zaki ijodida ot eng ko’p qo‘llangan hayvon turlaridan biri hisoblanib, maqollarda ham insonning eng yaqin, sadoqatli, do‘sti, vafodor sifatida tasvirlanadi. Ot bilan yigit bir butunlikni tashkil qilib, unga minish ham bir san’at ekanligi ta’kidalangan.

"Yavaş giden atın çiftesi pek olur."[3]

(Sekin yuradigan otning tepishi kuchli bo‘ladi.)

Bu maqolda “yavaş giden at” obrazi orqali sokin, kamgap va bosiq insonlar tasvirlanadi. “Çifte” esa kutilmagan paytda bildiriladigan keskin reaksiyani anglatadi. Ko‘pincha tinchgina, ichimdagina ko‘rinadigan insonlarning voqea-hodisalar yoki odamlarga nisbatan ko‘rsatgan reaksiyalari atrofdagilarni hayratda qoldirishi mumkin. Mazkur maqol mazmun jihatidan o‘zbek tilidagi “ummagan tosh bosh yoradi” maqoliga yaqin.

"At, adımına göre değil, adamına göre yürür."[4]

(Ot yurishini o‘z qadamiga qarab emas, egasiga qarab qiladi.)

Insonning xulqi, harakati va natijalari odatda uni o‘zidan ko‘ra uni boshqarayotgan, tarbiyalayotgan, yo‘naltirayotgan insonga, shaxsga bog’liq bo’ladi.

"At yiğidin yoldaşıdır."[5]

(Ot — yigitning yo‘ldoshi.)

Qadimda ot yigit uchun eng yaqin hamroh, sodiq do‘st va tayanch vosita bo‘lib kelganini anglatadi.

Bundan tashqari turk xalq maqollarida hayvonlar obrazi orqali insoniy fazilatlar, ijtimoiy xulq-atvor va axloqiy tushunchalar ifodalanganligi sababli, hayvonlar odatda ijobiy

---

[1] https://arxiv.uz/uz/documents/adabiyot/maqollar. 20.09.2019

[2] .Küçük, Serhat; Zeyrek, Selin. “Türk Atasözlerinde Geçen Bazı Hayvan İmgeleri Üzerine Tespitler.” Littera Turca Journal of Turkish Language and Literature, 2023.

[3] Aydoğdu, Burçin. “Türkçede atla ilgili atasözleri ve deyimler.”

[4] Aydoğdu, Burçin. “Türkçede atla ilgili atasözleri ve deyimler.”

[5] Aydoğdu, Burçin. “Türkçede atla ilgili atasözleri ve deyimler.”

va salbiy timsollarga ajratilib, ular orqali turli xarakter xususiyatlari o‘xshatish asosida tasvirlanadi.

Ijobiy obrazlar:

It (köpek): Sadoqat, vafodorlik va qo‘riqchi timsoli. Garchi ba’zan salbiy ma’noda kelsa-da, ko‘pincha uy va egasini himoya qiluvchi sifatida ulug’lanadi.

"İt sahibini ısırmaz *(It egasini qopmas)*

Arslon (aslan): Kuch, jasorat, yetakchilik, g’urur kabi ramzi sifatida keladi.

"Aslan yattığı yerden belli olur."

(Arslon yotgan joyidan bilinar.)

"Aslan korkudan ölmez."[6]

(Arslon qo‘rquvdan o‘lmaydi.)

Salbiy obrazlar:

Tulki (tilki): Ikkiyuzlamachi, ayyor, hiylakor, makkorlik timsoli hisoblanadi.

“Ayyar tilki art ayağından tutulur.”

(Ayyor tulki orqa oyog‘idan ushlanadi.)

Ma’nosi: hiylakor odam oxiri qo‘lga tushadi.

Eshak (eşek): Qaysarlik, johillik, tamballik, past saviyalilik sifatida tasvirlanadi.

“Eşek hoşaftan ne anlar?”

(Eshak kompotdan nima tushunadi?)

Ma’nosi: yaxshi narsani qadriga yetmaydigan, tushunmaydigan odam.

Ilon (yılan):Xiyonat, xavf, yomonlik timsoli.

“Sevda geçer, yalan olur, sonra sokar yılan olur.”[7]

(Sevgi o'tadi, yolg'onga aylanadi, keyin esa ilon kabi chaqadi.)

Ma’nosi: Dastlab baxt keltiradigan hissiy munosabatlar vaqt o‘tishi bilan so‘nib ketadi va oxir-oqibat og’riqli xotiralarga aylanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda turk xalq maqollari og’zaki ijodning muhim qismi bo’lib, xalqning hayot tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini ifodalashda katta ahamiyatga ega. Ular hayvon obrazlari orqali inson xarakterini tasvirlab, fikrni qisqa va ta’sirli tarzda yetkazishga yordam beradi. Maqollar orqali insoniy fazilatlar, nasihatlar va fikirlar avloddan-avlodga yetib keladi, shu bilan birga tilimizning badiiy boyligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Küçük, Serhat; Zeyrek, Selin. “Türk Atasözlerinde Geçen Bazı Hayvan İmgeleri Üzerine Tespitler.” Littera Turca Journal of Turkish Language and Literature, 2023.
2. Doğan, Levent; Bayraktar, F. Sibel. Türk atasözleri üzerine çalışmalar.
3. Yarmatova, M.A. Maqollarda hayvonlar obrazlarining tasviri. Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti, (yil ko‘rsatilmagan).
4. Kerim Usta. “Türk kültüründen hayvanlarla ilgili atasözleri.” 11.04.2021.
5. Aydoğdu, Burçin. “Türkçede atla ilgili atasözleri ve deyimler.”

[6] Türk Dil Kurumu. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. Ankara.

[7] Aksoy, Ömer Asım. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. Ankara.